

O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirining  
2025 yil "23" iyundagi  
180-sonli buyrug'iga  
ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN DERMATOLOGIYA VA  
KOSMETOLOGIYA ILMIIY-AMALIIY TIBBIYOT MARKAZI**

**“OYOQ PANJASI (QO'L KAFTI) MIKOZI”  
NOZOLOGIYASI BO'YICHA MILLIY KLINIK  
PROTOKOLI**

**TOSHKENT 2024**



**“TASDIQLAYMAN”**  
Respublika ixtisoslashtirilgan  
dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-  
amaliy tibbiyot markazi direktor  
v.v.b. Djalilov D.S.  
“ *[Signature]* ” “ *[Signature]* ” 2025 yil

**“OYOQ PANJASI (QO’L KAFTI) MIKOZI”  
NOZOLOGIYASI BO‘YICHA MILLIY KLINIK  
PROTOKOLLAR**

**TOSHKENT 2025**

**«OYOQ PANJASI (QO‘L KAFTI) MIKOZI»  
NOZOLOGIYASI  
BO‘YICHA TASHXISLASH VA DAVOLASH  
MILLIY KLINIK PROTOKOLI**

**TOSHKENT 2024**

## 1. Kirish qismi

### XKT-10/11 kodlari:

|       |   |      |   |
|-------|---|------|---|
| B35.1 | Tirnoq mikozi   | EA60 | Zamburug‘li infeksiya tufayli kelib chiqqan ba’zi teri kasalliklari |
| B35.2 | Qo‘l kaft mikozi  |      |   |
| B35.3 | Oyoq panja mikozi   |      |   |
| B35.4 | Tana mikozi   |      |   |
| B35.6 | Chov epidermofitiyasi   |      |   |
| B37.2 | Teri va tirnoq kandidozi  |      |   |
|       | <a href="https://mkb-10.com/index.php?pid=11157">https://mkb-10.com/index.php?pid=11157</a> |      | <a href="https://icd11.ru/">https://icd11.ru/</a>                   |

Dermatofitlarning etiologik tasnifi ham mavjud: Trichophyton rubrum qo‘zg‘atadigan mikozi (rubrofitiya, rubromikoz); Trichophyton mentagrophytes, var. interdigitale (epidermofitiya) qo‘zg‘atadigan mikozi.

**Bayonnomani ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqish sanasi:** 2025-yil, qayta ko‘rib chiqish sanasi 2028-yil yoki yangi asosiy dalillar paydo bo‘lishiga qarab. Taqdim etilgan tavsiyalarga kiritilgan barcha tuzatishlar tegishli hujjatlarda e‘lon qilinadi.

**Ushbu klinik protokol va standartni ishlab chiqish uchun mas‘ul muassasa:**  
**Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi**

### Milliy klinik protokol va standartlarni ishlab chiqishda xissa qo‘shganlar:

1. Sabirov Ulug‘bek Yusupxanovich – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (O‘z. Res. SSV RIDvaKIATM) direktori, tibbiyot fanlari doktori, professor.
2. Ikramova Nargiza Djurabaevna - mutaxassislar va klinik ordinatorlar stajirovka bo‘limi metodisti O‘z. Res. SSV RIDvaKIATM, tibbiyot fanlari nomzodi.
3. Raxmatov Akram Baratovich – mikozi muammolarini o‘rganish ilmiy laboratoriyasi rahbari O‘z. Res. SSV RIDvaKIATM, tibbiyot fanlari doktori, professor.
4. Xalidova Xalida Rashidovna – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (O‘z. Res. SSV RIDvaKIATM) katta ilmiy xodimi, tibbiyot fanlari nomzodi.
5. Boxodirova Afruza Ahror qizi – O‘z. Res. SSV RIDvaKIATM ilmiy kotibi.

### Taqrizchilar:

1. Yakubov Abdulaziz Abdujabbarovich – Mutaxassislarni stajirovka qilish va klinik ordinatorlarni tayyorlash bo‘limi mudiri, PhD.

2. Muxamadiyeva Kibriyoxon Mansurovna – tibbiyot fanlari doktori, Abu Ali Ibn Sino nomidagi Tojikiston davlat tibbiyot universiteti dermatovenerologiya kafedrasini mudiri, dotsent.

### **Milliy klinik protokol va standartlarni texnik baholash bo'yicha ekspert xulosasi va taxirlash:**

1. Inoyatov Avaz Shavkatovich – klinikaning davolash bo'yicha direktor o'rinbosari, bosh shifokor, tibbiyot fanlari doktori.

2. Djalilov Dilshod Sayfullaevich – direktorning ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, tibbiyot fanlari nomzodi.

Mazkur klinik protokol va standartlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari Basitxanova E.I, Tibbiy sug'urta boshqarmasi boshlig'i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi boshlig'i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko'magi asosida ishlab chiqilgan.

Klinik bayonnoma RIDvaKIATM va oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, O'zbekiston dermatovenerologlar assosiasiyasi a'zolari, sog'liqni saqlash tashkilotchilari, shuningdek, hududiy dermatovenerologiya xizmati muassasalari shifokorlari ishtirokida 2024-yil 26-dekabr kuni oflayn formatda bo'lib o'tgan Ilmiy kengash yig'ilishida muhokama qilindi va tasdiqlash uchun tavsiya etildi (11-son bayonnoma).

### **Protokoldan foydalanuvchilar:**

1.Dermatologlar;

2.Umumiy amaliyot shifokorlari;

3.Pediatrlar;

4.Laboratoriya shifokorlari;

5.Sog'liqni saqlash tashkilotchilari;

6.Klinik farmakologlar;

7.Talabalar, klinik ordinatorlar, magistrantlar, aspirantlar, tibbiyot oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari;

8.Ushbu patologiya bilan og'rigan bemorlar, ularning oila a'zolari va g'amxo'rlik qiluvchilar.

**Bemorlar toifasi:** oyoq panjalari (qo'l kaftlari) mikozi bilan og'rigan bemorlar.

**Dalillarning isbotlanganlik darajasini baholash shkalasi**  
(tashxislash aralashuvlari uchun)

| <b>Dalillarning isbotlanganlik darajasi</b> |   |
|---|---|
| 1   | Referens usul yordamida nazorat ostida o'tkazilgan tadqiqotlarning tizimli sharhlari yoki meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli sharhi  |
| 2   | Referens usul nazorati bilan o'tkazilgan ayrim tadqiqotlar yoki ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi bundan mustasno |
| 3   | Referens usul yordamida izchil nazoratsiz yoki o'rganilayotgan usuldan mustaqil bo'lmagan referens usul yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar yoki randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan, kogortli tadqiqotlar   |
| 4   | Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat tavsifi   |
| 5   | Muolajaning ta'sir mexanizmi asoslari yoki ekspertlar xulosasi  |

**Dalillarning isbotlanganlik darajasini baholash shkalasi**  
(profilaktika, davolash va reabilitatsion tadbirlar uchun)

| <b>Dalillarning isbotlanganlik darajasi</b> |   |
|---|---|
| 1   | Meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi  |
| 2   | Ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi bundan mustasno |
| 3   | Randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan, kogortli tadqiqotlar  |
| 4   | Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat yoki holatlar seriyasi tavsifi, "holat-nazorat" tadqiqoti   |
| 5   | Muolajaning ta'sir mexanizmi asoslari (klinika oldi tadqiqotlar) yoki ekspertlar xulosasi   |

**Tavsiyalarning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi**

| <b>Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi</b> |   |
|---|---|
| A   | Kuchli tavsiya (barcha ko'rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o'rinni egallaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va qiziqtirayotgan natijalar bo'yicha xulosalari kelishilgan)             |
| B   | Shartli tavsiya (ayrim ko'rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o'rinni egallaydi, ayrim tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va/yoki qiziqtirayotgan natijalar bo'yicha xulosalari kelishilmagan)       |
| C   | Kuchsiz tavsiya (sifatli dalillar keltirilmagan, ko'rib chiqilgan samaradorlik mezonlari, natijalar) muhim o'rinni egallamaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati past va qiziqtirayotgan natijalar bo'yicha xulosalari kelishilmagan |

## **Mundarija**

«OYOQ PANJASI (QO‘L KAFTI) MIKOZI» NOZOLOGIYASI BO‘YICHA TASHXISLASH  
VA DAVOLASH MILLIY KLINIK PROTOKOLI

.....4

«OYOQ PANJASI (QO‘L KAFTI) MIKOZI» NOZOLOGIYASINING TIBBIY  
ARALASHUVLARI BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLI

.....28

«OYOQ PANJASI (QO‘L KAFTI) MIKOZI» NOZOLOGIYASINING PROFILAKTIKA VA  
REABILITASIYASI BO‘YICHA MILLIY KLINIK  
PROTOKOLI.....36

## Qisqartmalar ro'yxati:

|      |                                    |
|------|------------------------------------|
| XKT  | Xalqaro kasalliklar tasnifi        |
| OPM  | Oyoq panja mikozi                  |
| QKM  | Qo'l kaft mikozi                   |
| OM   | Onixomikoz                         |
| RIF  | Reaksiya immunoflyuoressensiya     |
| OIT  | Oshqozon-ichak trakti              |
| AST  | Aspartataminotransferaza           |
| ALT  | Alaninaminotransferaza             |
| UTT  | Ultra tovush tekshiruvi            |
| IXLA | Immunoxemilyuminessent analiz      |
| IFIA | Immunoflyuoessentniy analiz        |
| IFA  | Immunoferment analiz               |
| PZR  | Polimeraz zanjir reaksiyasi        |
| Ig   | Immunoglobulin                     |
| OITV | Odam immunitet tanqisligi virusi   |
| m/o  | Mushak orasiga                     |
| v/i  | Vena ichiga                        |
| t/o  | Teri ostiga                        |
| JSST | Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti |
| PILN | Past intensivli lazer nurlanishi   |

## Asosiy qism

### 2.1. Kirish

Qo'l panja, oyoq panja va tana mikozlari – teri va uning ortiqlarini zararlovchi *Trichophyton rubrum*, *Trichophyton mentagrophytes*, var. *interdigitale*, *Epidermophyton floccosum* zamburug'lari va *Candida* turkumi zamburug'lari qo'zg'atadigan kasalliklardir.

### 2.2. Etiologiya

Dermatofitlarning eng ko'p uchraydigan qo'zg'atuvchilari *Trichophyton rubrum* (90%) va *Trichophyton mentagrophytes*, var. *interdigitale* patogen zamburug'laridir. Kam hollarda bu kasalliklar *Epidermophyton floccosum* va *Candida* turkumi zamburug'lari [1, 2] tomonidan qo'zg'atiladi.

Patogen zamburug'lar bemor bilan bevosita muloqotda bo'lganda, shuningdek, sport zallari, hammomlar, saunalar, basseynlarga tashrif buyurganda poyabzal, kiyim-kechak, kundalik turmush buyumlari (hammomdagi gilamchalar, mochalkalar, manikyur buyumlari va boshqalar) orqali yuqishi mumkin.

Zamburug'larning teriga kirib borishiga tirnalish, terining ko'p terlashi yoki quruqligi, suv muolajalaridan keyin yaxshi qurimasligi, barmoqlar orasidagi burmalarning torligi, oyoqlarning yassiligi, oyoq-qo'llarning qon tomir kasalliklarida qon aylanishining buzilishi va boshqalar tufayli yuzaga keladigan tirnalishlar, barmoqlar orasidagi burmalar yoriqlari yordam beradi. Mikoziar yo'ldosh kasalliklar - endokrin, ko'pincha qandli diabet, immun buzilishlar, genodermatozlar, qon kasalliklari mavjud bo'lganda, shuningdek antibakterial, kortikosteroid va sitostatik preparatlar qo'llanilganda keng tarqalgan xarakterga ega bo'lishi mumkin.

### 2.3. Epidemiologiya

Ko'p markazli tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, teri yuzaki mikozlari (TYuK) bilan og'riqan bemorlarning ulushi dermatologik patologiya tarkibida 14% ni tashkil etdi, ulardan 34,6% oyoq panja mikozlariga to'g'ri keldi. TYuK bilan kasallanishning intensiv ko'rsatkichi (IK) - 94,5%, dermatomikozlar - 62,5%, oyoq panja mikozlari - 32,7%. [3].

Dermatofitiya tarkibida oyoq panja mikozi etakchilik qiladi - 35,7%, yirik burmalar dermatofitiyalari chastotasi bo'yicha ikkinchi o'rinni egallaydi - bemorlarning 26,4%. Tekshirilganlarning 20,9% da silliq teri mikozlari qayd etilgan. Boshqa lokalizasiyadagi dermatofitiyalar kamroq uchraydi: qo'l-oyoqlarda (oyoq panjalari va qo'l panjalaridan tashqari) - 7,8%, qo'l panjalarida - 6,3%, yuzda - 2,9%.

Oyoq panja mikozi bilan og'riqan bemorlar orasida erkaklar ustunlik qiladi - mos ravishda 57,8 va 42,3%, uning tarqalishi esa yosh o'tishi bilan ortib boradi. Eng muhim xavf guruhi 50 yoshdan oshgan shaxslar bo'lib, ular 37,8% ni tashkil qiladi, 40-49 yoshda oyoq panja mikozining tarqalishi - 20,5%, 30-39 yoshda - 22,8%, 10 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan yosh guruhiga esa 17,8% to'g'ri keladi. Oyoq panja mikozi strukturasi skvamoz va intertriginoz shakli ustunlik qiladi. Tirnoq plastinkalarining zararlanishida onixomikozning normotrofik turi 48,2% hollarda, ko'pincha III—IV barmoqlarda aniqlanadi.

### 2.4. Klassifikatsiya

1. Silliq teri mikozi
2. Yirik burmalar mikozi
3. Qo'l kaftlari mikozi
4. Oyoq panjasi mikozi:
  - skvamoz;
  - giperkeratotik;
  - intertriginoz;
  - disgidrotik shakli.

5. Tirnoq mikozi (onixomikoz)

(zararlanishning lokalizasiyasi bo'yicha):

- distal (distal-lateral);
- yuzaki (yuzaki oq);
- proksimal.

(kasallikning klinik ko'rinishlariga qarab, onixomikozning uch turi farqlanadi):

- Normotrofik. Bunda tirnoq plastinkasining shakli o'zgarmaydi. Tirnoqning qalinligida oq-sariq chiziqlar ko'rinadi.
- Gipertrofik. Bu tipda rang o'zgarishidan tashqari tirnoq shaklining deformatsiyasi kuzatiladi. U qalinlashadi, qiyshayadi va qisman emiriladi, asosan yon tomonidan, yirtqich qushning tirnog'iga o'xshab qoladi (bunday holat onixogrifoz deb ataladi).
- Atrofik. Bu tip uchun tirnoq distal qismining yupqalashishi va ko'chishi xarakterlidir. U qo'ng'ir-kulrang tusga kiradi, atrofiyaga uchraydi va yo'qolib ketadi.

### 2.5. Shikoyatlar va anamnez - "klinik ko'rinishi"

#### Silliq teri mikozi

Silliq badan terisi mikozida pushti yoki qizil-pushti, ko'kimtir tusli dog'lar, aniq chegaralarga ega bo'lgan yumaloq shakllar paydo bo'lishi xarakterlidir. Dog'lar yuzasida odatda mayda tangachalar

bo'ladi, ularning chetlaridan yorqin tugunchalardan iborat uzuq-yuluq valik o'tadi. Dog'lar dastlab kichik, ammo vaqt o'tishi bilan kattalashadi.

Ko'pchilik bemorlarda shikastlanish o'choqlarida qichishish kuzatiladi. Surunkali, involyusiyaga moyil bo'lmagan, yilning iliq vaqtida qo'zishi va topik glyukokortikosteroidlar qo'llanilganda yomonlashishi bilan kechadi.

#### **Yirik burmalar mikozi**

Yirik burmalar mikozi chov sohalarning terisida, son, yorg'oq ichki yuzalarida, gohida – dumba oralig'idagi burmada, shuningdek qo'ltiqosti va submamar sohalarda po'st tashlaydigan pushti dog'lar paydo bo'ladi. Dastlab toshmalarning diametri 1 sm gacha bo'ladi, keyin ular kattalashib, katta (diametri 10 sm gacha) halqasimon yoki yaxlit o'choqlar hosil qiladi, ular qichishish yoki achishish bilan birga keladi.

#### **Qo'l kaftlari mikozi**

Kasallik boshlanishida qo'l panjalari terisining zararlanishi bir tomonlama bo'lib, ko'pincha tirnoq plastinkalarining zararlanishi va tovon terisida shunga o'xshash o'zgarishlar bilan birga davom etib boradi.

Qo'l panjalari mikozi asosiy shikoyatlar terining quruqligi va qalinlashuvi, arzimas giperemiya fonida teri burmalarining po'st tashlashi bo'lib, sub'ektiv ravishda qichishish bilan birga kechadi.

#### **Oyoq panjalari mikozi**

Kasallikning boshlanishi odatda bemorning o'zi sezmaganda boshlanadi va biroz po'st tashlash bilan kechadi. Vaqt o'tishi bilan po'st tashlash kuchayadi va oyoq panjasining katta maydonini egallab, tarqaladi va qichishish paydo bo'ladi.

Bahor-yoz davrida yoki oyoqlar ko'p terlaganida, ho'l poyabzal kiyganida barmoqlar oralig'ida avvaliga engil achishish yoki qichishish bilan kechadigan terining biroz maserasiyasi paydo bo'ladi, keyinchalik esa achishish va og'riqni keltirib chiqaradigan chuqur yoriqlar hosil bo'ladi. Davolash o'tkazilmasa, vaqt o'tishi bilan og'riqli nuqsonlar mustaqil ravishda yo'qoladi, lekin barmoqlar oralig'ida po'st tashlash saqlanib qolishi mumkin.

Oyoq panjasi terisining uzoq muddat saqlanib turadigan po'st tashlashi fonida yozda gumbazda yoki tovon sohasida diametri 5 mm gacha bo'lgan, ichi tiniq, kattalashib va bir-biriga qo'shib ketadigan zich pufakchalar paydo bo'lishi mumkin. Pufakchalarning ochilishi eroziyalar hosil bo'lishiga olib keladi, ekssudat esa quriydi va jigarrang plastinkali po'stloqlar hosil bo'ladi. Bunday belgilar har xil intensivlikda qichishish, infiltrasiya va terida shish paydo bo'lishi bilan birga davom etib boradi.

#### **Tirnoq mikozi (onixomikoz)**

Tirnoq plastinkalarining zamburug' bilan zararlanishida oyoq panjalari va qo'l panjalari tirnoqlarining tashqi ko'rinishi o'zgarishi asosiy shikoyat hisoblanadi. Tirnoqlarning zararlanishi, ko'pincha, oyoq panjasi va qo'l panjalari terisida uzoq vaqtdan beri sezilar-sezilmas o'zgarishlar bo'lib turgan mahalda, giperemiya va po'st tashlash ko'rinishida boshlanadi.

Tirnoq plastinkalarining o'zgarishlari yaltiroqlik, shaffoflikning yo'qolishi, uning rangining o'zgarishi bilan tavsiflanadi, oq, kulrang, sariq, ba'zan esa to'q rangli joylar paydo bo'lishi mumkin, ular vaqt o'tishi bilan butun plastinkani shikastlaydi. Tirnoqning tuzilishi ham o'zgarishi mumkin - u qalinlashadi yoki, aksincha, yupqalashadi, ajralib chiqadi, erkin cheti notekis bo'lib qoladi va maydalanadi.

#### **Rubrofitiya**

Rubrofitiyaning klinik manzarasida oyoq panjasining beshta asosiy shakli tafovut qilinadi: skvamozi, skvamozi-giperkeratotik, intertriginoz, disgidrotik va onixomikoz.

Skvamozi xili badan terisida barmoqlar orasidagi burmalar, tovon, kaftlar po'st tashlanishi, ba'zan mayda yuza yoriqlari bo'lishi bilan ta'riflanadi. Oyoq panjasining yon yuzalari sohasida deskvamasiya hodisalari ham kuzatilishi mumkin.

Skvamoz-giperkeratotik shakli oyoq panjasining eng katta yukni tashiydigan yon va tovon yuzalarining shox qatlamining diffuz yoki o'choqli qalinlashishi (giperkeratoz) bilan namoyon bo'ladi. Badan terisining zararlangan joylari odatda yallig'lanish tusida bo'lib, mayda-mayda kepaksimon yoki unsimon tangachalar bilan qoplangan bo'ladi. O'zgargan oyoq panjasi "kuzatuvchi" yoki "hind paypog'i" - "mokasin turi" ko'rinishida bo'lishi mumkin. Teri egatlarida po'st tashlash teriga go'yo "kukunsimon" ko'rinishga ega bo'lgan yuvilgan rasmni yaratadi. Subektiv ravishda terining quruqligi, o'rtacha qichishish, ba'zan zararlangan joylardagi og'riq qayd etiladi.

Intertriginoz (barmoqlar oralig'i, qirqimsimon) shakli klinik jihatdan qirqimga o'xshaydi. Barmoqlar orasidagi burmalar, ko'pincha oyoq panjasining III va IV, IV va V barmoqlari orasida zararlanadi. Jarayon giperemiya, shish, ivish va maserasiya bilan boshlanishi, ba'zi hollarda pufakchali toshmalar paydo bo'lishi bilan ta'riflanadi. Ko'pincha eroziyalar, chuqur va og'riqli yoriqlar paydo bo'ladi. Sub'ektiv jihatdan yara o'choqlarida qichishish, achishish, og'riq seziladi. Disgidrotik xili qalin qopqoqli ko'p sonli pufakchalar paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ladi. Asosan oyoq panjasi gumbazi, shuningdek, barmoqlar orasidagi burmalar va barmoqlar terisi zararlanadi; ular birlashib, katta ko'p kamerali pufaklarni hosil qiladi, ularni ochganda pushti-qizil rangli nam eroziyalar paydo bo'ladi. Toshmalar o'zgarmagan terida joylashadi. Kasallik boshlanib ketganida badan terisida qizarib turishi, shishib turishi va qichishib turishi ham qo'shib boradi, shu narsa bu kasallikni o'tkir disgidrotik ekzemaga o'xshatib qo'yadi.

Bolalarda oyoq panjasi silliq terisining zararlanishi barmoqlarning oxirgi falangalari ichki yuzasida, ko'pincha III va IV barmoqlararo burmalarda yoki barmoqlar ostida mayda plastinkali po'st tashlash, giperemiya va maserasiya bilan tavsiflanadi. Oyoq kafti terisining shakli o'zgarmagan yoki kuchaygan bo'lishi mumkin, ba'zan halqasimon po'st tashlash kuzatiladi. Kasallik qichishish bilan birga davom etadi. Bolalarda kattalarga qaraganda faqat oyoq kaftlarida emas, balki qo'l panjalarida ham ekssudativ zararlanishlar ko'proq uchraydi.

Rubrofitiyada oyoq panjasi onixomikozi asosan barcha tirnoqlarning zararlanishi bilan namoyon bo'ladi. Onixomikozning normotrofik, gipertrofik va atrofik xillari tafovut qilinadi.

Normotrofik tip uchun tirnoqning qalinligida sarg'ish va oq rangli yo'llar paydo bo'lishi xarakterlidir, bunda tirnoq plastinkasi o'z shaklini o'zgartirmaydi, tirnoq osti giperkeratozi ifodalanmaydi.

Gipertrofik xilida tirnoq osti giperkeratozi hisobiga tirnoq plastinkasi qalinlashib, sarg'ish tusga kiradi, maydalashib, chetlari tishli bo'lib qoladi.

Onixomikozning atrofik xili sezilarli darajada yupqalashib, tirnoq plastinkasi tirnoq o'rnidan ajralib chiqib, bo'shliqlar hosil bo'lishi yoki qisman emirilishi bilan ta'riflanadi. Shuningdek, distal, distal-lateral, oq yuzaki, tirnoq osti proksimal, total distrofik onixomikoz tafovut qilinadi. Kaftlar rubrofitiyasi kasallikning boshida kaftlar terisining zararlanishi bilan ta'riflanadi va tabiatan bir tomonlama bo'lib, kaftlar onixomikozi bilan birga davom etib borishi mumkin. Klinik jihatdan olganda badan terisining qurishi, muguz qavatining qalinlashuvi, un-shudringli po'st tashlash va teri jo'yaklarining yo'qolib ketishi kuzatiladi. Qo'l panjalari orqasida paydo bo'ladigan o'choqlar chetlari uzilib turadi va tugunchalar, pufakchalar, po'stloqchalardan iborat bo'ladi. Qo'l panjalari, silliq teri va burmalarining infeksiyasi, qoida tariqasida, zamburug'larning limfogematogen tarqalishi natijasida oyoq panjasi rubrofitiya o'choqlaridan kelib chiqadi, autoinokulyasiya paytida; kamdan-kam hollarda zamburug'lar ekzogen kiritilganda birinchi bo'lib paydo bo'ladi. Eritematoz-skvamoz, follikulyar-tugunchali va infiltrativ-yiringli xillari tafovut qilinadi. Rubrofitiyaning eritematoz-skvamoz xili uchun aniq chegaralarga ega bo'lgan pushti yoki qizil-pushti tusli, ko'kimtir tusli dog'larning yumaloq shakllarining bo'lishi xarakterlidir. Dog'lar yuzasida odatda mayda tangachalar bo'ladi, ularning chetlaridan suvli tugunchalardan iborat uzuq-yuluq valik o'tadi. Tugunchalar ko'pincha mayda pufakchalar va

qobiqchalar bilan qoplangan bo‘ladi. Dog‘lar dastlab kichik, markazdan qochma o‘shiga va bir-biri bilan qo‘shilib ketishga moyil, shu bilan birga ular teri qoplaminig keng maydonlarini egallagan katta-katta o‘choqlar hosil qiladi.

Rubrofitiyaning follikulyar tugunli xili tuklarning eritematoz-skvamoz o‘choqlari doirasida zararlanishi bilan ajralib turadi. Sochlar tabiiy yaltiroqligini yo‘qotadi, xira va mo‘rt bo‘lib qoladi.

Rubrofitiyaning infiltrativ-yiringli xili juda kam uchraydi, asosan bolalarda boshning sochli qismida uchraydi. Klinik ko‘rinishlari zoofil trixofitonlar qo‘zg‘atadigan infiltrativ-yiringli trixofitiyaga o‘xshab ketadi. O‘choqlar yo‘qolib ketganidan keyin ularning o‘rnida alohida atrofik chandiqlar qolishi mumkin.

### **Epidermofitiya**

Oyoq panjasi epidermofitiyasi oyoq panjasining Trichophyton mentagrophytes, var. interdigitale (barmoqlararo trixofiton) chaqiradigan zararlanishidir. Bu zamburug‘li jarayon ancha kam uchraydi va rubrofitiya klinikasidan kam farq qiladi. Oyoq panjasi epidermofitiyasi qo‘zg‘atuvchisi yaqqol allergik ta'sirga ega, shuning uchun bunday bemorlarda ko‘pincha kasallikning intertriginoz va disgidrotik shakllari paydo bo‘ladi, ular ikkilamchi toshmalar (mikidlar) bilan birga keladi. Eritema, shish, eroziyalar va yaralar paydo bo‘lishi, grammusbat bakteriyalar keltirib chiqaradigan ikkilamchi infeksiya qo‘shilishi bilan ko‘plab deskvamasiya rivojlanishi mumkin. Bunday jarayon mintaqaviy (chov-son) limfadenit, limfangiit va umumiy alomatlar: isitma, holsizlik bilan birga keladi. Kasallikning boshida oyoq panjasining III va IV barmoqlari o‘rtasidagi burmaning shikastlanishi kuzatiladi, oyoq panjasining yuqori uchdan bir qismiga, gumbazga, oyoq panjasining yon yuzalariga va barmoqlarga o‘tadi. Ko‘pincha onixomikozning yuzaki shakllari aniqlanadi, ammo bir bemorda rubrofitiya onixiyalariga o‘xshash kombinasiyalangan onixodistrofiya shakllari uchrashi mumkin.

Chov epidermofitiyasi terida chov sohalari, son, yorg‘oq ichki yuzalarida, goho – dumbalar oralig‘i burmada, shuningdek qo‘ltiq osti va sut bezlari ostidagi burmalarda po‘st tashlaydigan pushti dog‘lar paydo bo‘lishi bilan ta'riflanadi. Yallig‘lanish elementlari diametri 1 sm gacha bo‘lib, asta-sekin periferiya bo‘ylab o‘sib boradi, shu bilan birga markazdagi yallig‘lanish hodisalari hal qilinishi mumkin. Qizil rangli yirik (diametri 10 sm gacha) halqasimon dog‘lar hosil bo‘ladi, ular bir-biriga qo‘shilib, festonsimon o‘choqlar hosil qiladi. O‘choqlar chegaralari keskin, shishgan yorqin giperemiyalangan yallig‘lanish valigi bilan ajralib turadi, uning yuzasida pufakchalar va mayda pustular mavjud. Sub'ektiv ravishda toshmalar qichishish bilan tavsiflanadi.

### **Tirnoqlar va tirnoq valiklari kandidozi**

Kandidoz onixomikozning klinik manzarasi odatda proksimal, goho distal shaklda bo‘ladi.

Proksimal shakli sariq-jigarrang yoki jigarrang tirnoq plastinkasi bilan ifodalanadi, yaqqol mo‘rtlik bilan ajralib turadi, bu esa yon tomondan kesilgan tirnoq qirrasining shakllanishiga olib keladi (proksimal-lateral variant). Jarayon paronixiya hodisalari bilan birga kechadi, bunda yallig‘langan tirnoq valigi paypaslanganda flyuktuasiya va yiringli ajralma kuzatilishi mumkin.

Kandidoz onixomikozning distal xili tirnoq plastinasining rangi o‘zgarib, giperkeratoz boshlanib, erkin (distal) chekkasidan lizisga uchrashi bilan ta'riflanadi.

Tirnoqlarning kandidoz zararlanishlarining differensial tashxisoti ekzema va psoriaz bilan ogʻrigan bemorlarda bakterial tabiatli onixiya va paronixiya bilan oʻtkaziladi.

### **Mogʻorli onixomikozlar**

Mogʻorli onixomikozning klinik manzarasi koʻpincha oyoq panjasining turli genezli, ham zamburugʻli, ham zamburugʻsiz genezli onixopatiyalari bilan ogʻrigan keksa odamlarda kuzatiladigan distal shaklda ifodalanadi. Bu ikkilamchi onixomikoz deb ataladigan kasallikdir. Shu bilan birga, tirnoq plastinkasi ushbu patologiyani keltirib chiqargan mogʻor qoʻzgʻatuvchisiga qarab har xil rangga ega boʻladi: qora, yashil-sariq yoki kulrang. Bu zamburugʻlarning pigment hosil qilish faoliyatiga va ularning bakteriyalar va achitqisimon zamburugʻlar bilan tez-tez birlashishiga bogʻliq. Keyinchalik tirnoqning pastki qismi ajraladi, ustki qismi qalinlashadi. Ancha ifodalangan onixomikoz boshlanadi, tirnoq deformasiyalanadi, koʻpincha onixogrifoz tipida oʻzgarib turadi. Koʻpincha oyoq barmoqlarining tirnoq plastinkalari zararlanadi. Mogʻor zamburugʻlari qoʻzgʻatadigan paronixiyali yoki paronixiyasiz onixomikozning proksimal shakli ancha kam uchraydi.

### **3. Oyoq panjalari va qoʻl kaftlari mikozi diagnostikasi**

<https://diseases.medelement.com/disease/>

#### **3.1. Oyoq panjalari, qoʻl kaftlari, tana va tirnoqlar mikozi tashxisi kasallikning klinik koʻrinishlari va laboratoriya tekshiruvlari asosida amalga oshiriladi**

##### **Fizik tekshiruv:**

[https://library.mededtech.ru/rest/documents/cr\\_861/](https://library.mededtech.ru/rest/documents/cr_861/)

- Ob'ektiv tekshiruvda aniqlanadigan qoʻl kaft, oyoq panja, tana va tirnoq mikozi tashxisi ob'ektiv klinik koʻrinishlari "Klinik koʻrinish" boʻlimida bayon etilgan.
- Zararlangan tirnoq plastinkalarini mikroskopik tekshirish, silliq teridagi oʻchoqlardan tangachalarni qirqish.
- Qoʻzgʻatuvchining turini aniqlash uchun Oʻzbekiston Respublikasida qoʻllashga ruxsat etilgan test-tizimlaridan foydalangan holda kultural tadqiqot va nuklein kislotalarni amplifikasiyalash (PZR) usullari tavsiya etiladi.
- Tizimli antimikotik preparatlarni tayinlashda qon zardobida bilirubin, AST, ALT, GGT, ishqoriy fosfataza, glyukoza biokimyoviy tekshiruv, ichki a'zolarning ultratovush tekshiruvi, gepatit V (Hepatitis B virus) virusining yuza antigeniga (HBsAg) va gepatit S (Hepatitis C virus) virusiga antitanachalarni aniqlash tekshiruvlarini oʻtkazish tavsiya etiladi.
- Terbinafin preparati bilan uzoq muddatli davolanishda rezistent shakllarda PZR usuli bilan terbinafin rezistentligini aniqlash tekshiruvi.
- Terbinafin preparati bilan uzoq muddatli davolanishda rezistent shakllarda PZR usuli bilan terbinafin rezistentligini aniqlash tekshiruvi.
- Onixomikozning terapiyaga chidamli shakllarida yuzaki va chuqur tomirlarni ultratovush tekshiruvidan oʻtkazish tavsiya etiladi.
- Zaxmga skrining testlari quyidagilardan biri: RMP, RPR, KSR; Tasdiqlovchi testlar (6 tadan 2 tasi majburiy): RIF, IFA IgG va IgM, RIBT, RPGA, IXA, Immunoblot IgG va IgM.
- Tegishli mutaxassislarining maslahati (endokrinolog, qon tomir jarrohi va boshqalar)

- Asoratlari (allergik toshmalar) mavjud bo'lganda immunoglobulin E ning IFA, IXLA usuli bilan taxlili.
- Bakterial flora bilan asoratlanganda antibiotiklarga sezuvchanlikni aniqlash bilan bakteriologik tekshirish tavsiya etiladi.
- Immunologik tadqiqotlar
- Gistologik tekshirish
- Instrumental tekshirish usullari: Dermatoskopiya, Vud lampasi ostida tekshirish.

<https://diseases.medelement.com/disease/микозы-костей-стоп-и-туловища-рекомендации-рф/15238>

### 3.2. Differentsial diagnostika

<https://diseases.medelement.com/disease/микозы-костей-стоп-и-туловища-рекомендации-рф/15238>

Rubrofitiya kasalligi psoriaz, seboreyali dermatit, ekzema, qizil yassi temiratki, Dyuringning gerpetiform dermatiti, qizil yugurak, teri limfomasi bilan differentsial diagnostika qilinadi.

| Oyoq panjasi mikozi, oyoq panjasi tirnoqlari (qo'l kafti) mikozi   | Zamburug' etiologiyali bo'lmagan oyoq panjalari (qo'l kafti), tirnoqlari terisining kasalliklari   |
|--|--|
| <p><b>T. Rubrum chaqirgan oyoq panja (qo'l kafti) mikozi.</b></p> <p>Oyoq panjasi va/yoki kaft terisida unsimon, halqasimon yoki plastinkasimon po'stloq, giperkeratoz o'choqlari</p>  | <p><b>Kaft-tovon psoriazi.</b></p> <p>Kaftlar va/yoki tovon terisida og'riqli yoriqlar bilan giperkeratoz ko'rinishidagi izolyasiyalangan yoki bir-biriga qo'shilib ketgan tugunchalar va pilakchalar</p> <p><b>Kaft va tovonlarning pustulez psoriazi.</b></p> <p>Kaftlar va/yoki oyoq kafti terisida normal yoki giperemiyalangan teri fonida guruhlangan pustulalar mavjud. Qurigan pustulalar o'rnida sariq yoki to'q jigarrang po'stloqlar hosil bo'ladi. Toshmalar barmoqlarning proksimal falangalariga tarqalishi mumkin; odatda, simmetrik. Sub'ektiv: qichishish va og'riq. Surunkali kechadi.</p> |
| <p><b>T. var. interdigitale chaqirgan oyoq panja mikozi (disgidrotik shakli)</b></p> <p>Pufakchalar va pufaklar gumbazlar sohasida, oyoq panjasining tashqi va ichki chekkasida, ba'zan barmoqlar orasidagi burmalarda joylashadi. Pufakchalar yorilib, eroziyalar hosil bo'ladi. Ikkilamchi infeksiya qo'shilganida pustulalar,</p> | <p><b>Disgidrotik ekzema</b></p> <p>Qo'l panjalari va/yoki oyoq barmoqlarining yon yuzalarida, ba'zan kaftlar va tovonlar terisida mayda, zich pufakchalar, ular mayda eroziyalar yoki shishlar hosil bo'lishi bilan yorilishi yoki sariq qobiqchalar hosil bo'lishi bilan qurib qolishi mumkin. Keyinchalik aniq chegaralarga ega bo'lgan</p>   |

|  |  |
|--|--|
| limfadenitlar, limfangitlar paydo bo‘ladi, qo‘l barmoqlarining yon va kaft yuzalarida, kaftlar, bilaklar, boldirlarda ikkilamchi allergik toshmalar paydo bo‘ladi. Mikozi birdan boshlanib, keyin surunkali tus olib, bahor-yoz oylarida zo‘rayib boradi.  | zararlanish o‘choqlari paydo bo‘ladi. Sub'ektiv: kuchli qichishish. Kechishi uzoq davom etadi.   |
| <b>Tirnoq mikozi</b><br><br>Tirnoqlarning konfiguratsiyasi normal, lekin ular xira, sarg‘ish tusli, plastinkaning burchaklarida yoki butun yuzasi bo‘ylab shox massalarining to‘planishi hisobiga distal chetida qalinlashgan (normotrofik shakl), tirnoqlar deformatsiyalangan bo‘lishi mumkin, rangi iflos-kulrang. Onixolizisda yoki tirnoq osti giperkeratozi tufayli tirnoqlarning qalinlashganligi; plastinkaning o‘zgargan distal chetida valik terisining chuqurchalari bilan tirnoqsimon zichlashadi. Tirnoq plastinkasi distal chetida yumshoqlashgan (gipertrofik shakl) yoki tirnoq plastinkasi sezilarli darajada buzilgan, tirnoq o‘rindig‘i yumshoq shoxli massalar bilan qoplangan (atrofik shakl) yoki tirnoq plastinkasi o‘rindig‘idan ajralgan, xiralashgan, ba‘zan iflos-kulrang tusga kirgan, matriksda normal rangda bo‘ladi (onixolizis tipidagi zararlanish) | <b>Ekzemada</b><br><br>Qo‘l yoki oyoq barmoqlaridagi tirnoqlari ko‘ndalang egatlar hosil bo‘lishi hisobiga notekislashadi, yumshaydi, distal chetida qotib qoladi. Tirnoqning orqa valigi qalinlashgan, eponixion bo‘lmasligi mumkin, yallig‘lanish hodisalari ahamiyatsiz.<br><br><b>Yassi qizil temiratkada</b><br><br>Tirnoq plastinkasining markazida chuqur yoriq yoki bo‘ylama taroqchalar va yoriqlar, tirnoq osti giperkeratozi, distal chekkasida plastinkalar sinadi. Noaniq etiologiyali tirnoq distrofiyasi to‘satdan paydo bo‘lishi, monoton kechishi, ko‘pincha qo‘l va oyoq barmoqlarining barcha plastinkalarining bir vaqtning o‘zida jarayonga jalb qilinishi, tirnoqlarning simmetrik o‘zgarishi, tirnoqning angishivonasimon botishi |

#### 4. Davolash

[https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy\\_stop\\_kistej\\_i\\_tulovishcha.pdf](https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovishcha.pdf)

<https://diseases.medelement.com/disease/МИКОЗЫ-КИСТЕЙ-СТОП-И-ТУЛОВИЩА-РЕКОМЕНДАЦИИ-РФ/15238>

O‘zbekiston Respublikasida bepul tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi doirasida va majburiy ijtimoiy tibbiy sug‘urta tizimida ro‘yxatdan o‘tkazilmagan dori vositalarining klinik bayonnomaga kiritilishi xarajatlarni qoplash uchun asos bo‘lmaydi.

Jadval 1

#### Asosiy dori vositalari ro‘yxati (qo‘llanilish ehtimoli 100%)

| Tashqi davo  |                                |                              |
|--|--------------------------------|------------------------------|
| 1. Tashqi qo‘llash uchun antimikotik preparatlar         |                                |                              |
| <i>Dori vositalarining (xalqaro patentlanmagan) nomi</i> | <i>Ishlab chiqarish shakli</i> | <i>Ishonchlilik darajasi</i> |

|                                  |  |   |
|----------------------------------|--|---|
| Izokonazol, krem                 | kuniga 1-2 marta tashqi qo'llashga, 4 hafta davomida                   | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Ketokonazol, krem, maz           | Klinik belgilar bartaraf bo'lguncha kuniga 1-2 marta tashqi qo'llashga | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Klotrimazol, maz, krem, eritmasi | Klinik belgilar bartaraf bo'lguncha kuniga 2 marta tashqi qo'llashga   | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Terbinafin sprej, dermgel        | Klinik belgilar bartaraf bo'lguncha kuniga 2 marta tashqi qo'llashga   | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Terbinafin eritmasi              | Bir marta har ikkala oyoq panjasiga 24 soatga tashqi qo'llashga        | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Mikonazol, krem                  | Klinik belgilar bartaraf bo'lguncha kuniga 2 marta tashqi qo'llashga   | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Naftifin, krem                   | Klinik belgilar bartaraf bo'lguncha kuniga 2 marta tashqi qo'llashga   | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Oksikonazol, krem                | kuniga 1-2 marta tashqi qo'llashga, 4 hafta davomida                   | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a><br><br><a href="https://www.vidal.ru/drugs/molecule/578">https://www.vidal.ru/drugs/molecule/578</a> |
| Sertakonazol, krem 2%            | Klinik belgilar bartaraf bo'lguncha kuniga 2 marta tashqi qo'llashga   | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a><br><br><a href="https://www.vidal.ru/drugs/molecule/258">https://www.vidal.ru/drugs/molecule/258</a> |

|   |  |   |
|---|--|---|
| Siklopiroks, krem                           | Klinik belgilar bartaraf bo'lguncha kuniga 2 marta tashqi qo'llashga | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a><br><br><a href="https://www.vidal.ru/drugs/molecule/1016">https://www.vidal.ru/drugs/molecule/1016</a> |
| Undesilen kislotasi + Rux undesilenati, maz | Klinik belgilar bartaraf bo'lguncha kuniga 2 marta tashqi qo'llashga | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Ekonazol, krem                              | Klinik belgilar bartaraf bo'lguncha kuniga 2 marta tashqi qo'llashga | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Bifonazol, krem                             | kuniga 1-2 marta tashqi qo'llashga, 5 hafta davomida                 | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a><br><br><a href="https://www.vidal.ru/drugs/molecule/719">https://www.vidal.ru/drugs/molecule/719</a>   |
| Borat kislotasi, 2% li eritmasi             | kuniga 2-3 marta tashqi qo'llashga, 1-2 kun davomida                 | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a><br><br><a href="https://www.vidal.ru/drugs/molecule/785">https://www.vidal.ru/drugs/molecule/785</a>   |
| Brilliant yashil, 1% li suvli eritmasi      | kuniga 1-2 marta tashqi qo'llashga, 1-2 kun davomida                 | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Rezorsin, 1-2% li eritmasi                  | kuniga 1-2 marta tashqi qo'llashga, 1-2 kun davomida                 | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Fukorsin eritmasi                           | kuniga 1-2 marta tashqi qo'llashga, 2-3 kun davomida                 | C<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Mikonazol + Mazipredon                      | kuniga 2 marta tashqi qo'llashga, 7-10 kun davomida                  | B   |

|  |  |   |
|--|--|---|
|  |  | <a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>   |
| Izokonazol nitrat + Diflukortolon valerat                            | kuniga 2 marta tashqi qo‘llashga, 7-10 kun davomida                      | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a><br><br><a href="https://www.vidal.ru/drugs/molecule/123">https://www.vidal.ru/drugs/molecule/123</a> |
| Klotrimazol + Betametazon, krem                                      | kuniga 2 marta tashqi qo‘llashga, 7-10 kun davomida                      | D<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Natamisin + Neomisin + Hidrokortizon krem                            | kuniga 2 marta tashqi qo‘llashga, 3-5 kun davomida                       | D<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Betametazon dipropionat + Gentasimin sulfat + Klotrimazol, maz, krem | kuniga 2 marta tashqi qo‘llashga, 3-5 kun davomida                       | D<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Gidrokortizon + Oksitetrasiklin, aerosol                             | kuniga 2-3 marta tashqi qo‘llashga, 1-3 kun davomida                     | D<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Mochevina yordamidagi birikmalar (20% plastir? 40% plastir)          | Tirnoqning infeksiyalangan ochoqlari tuliq olib tashlanguncha qollanadi  | D<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Naftifin krem, eritma  | Kuniga 2 marta tashqi qollashga, sog‘lom tirnoqlar osib chiqquniga qadar | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a>  |
| Siklopiroks krem, eritma   | Kuniga 2 marta tashqi qollashga, sog‘lom tirnoqlar osib chiqquniga qadar | A<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a><br><br><a href="https://www.vidal.ru/drugs/molecule/227">https://www.vidal.ru/drugs/molecule/227</a> |

|  |  |  |
|--|--|--|
| Amorolfin, tirnoqlar uchun lak 5%  | Tirnoqlar qo‘l panjalarida zararlanganda 6-8 oy davomida haftasiga 1-2 marta va oyoq panjalarida zararlanganda 9-12 oy davomida tashqi qo‘llashga  | A<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a><br><br><a href="https://www.vidal.ru/drugs/atc/d01ae14">https://www.vidal.ru/drugs/atc/d01ae14</a>  |
| Siklopiroksolamin, tirnoqlar uchun lak 8%  | Kun ora 1 oy davomida, haftasiga 2 marta - ikkinchi oy davomida, haftasiga 1 marta - uchinchi oy davomida va sog‘lom tirnoqlar o‘sib chiqqunga qadar (kamida 6 oy) tashqi qo‘llashga   | A<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a><br><br><a href="https://www.vidal.ru/drugs/molecule/61">https://www.vidal.ru/drugs/molecule/61</a>  |
| <b>Tizimli davo</b>  |  |  |
| Tashqi davo samarasiz bo‘lsa, tizimli ta'sirga ega antimikotik preparatlar buyuriladi: |  |  |
| Itrakonazol  | Kapsulalar, sutkasiga 200 mg ovqatdan keyin 7 kun davomida og‘iz orqali, keyin sutkasiga 100 mg ovqatdan keyin 1-2 hafta davomida<br><br>(tirnoqlar zararlanganda: 200 mg kuniga 2 marta ovqatdan keyin 7 kun davomida og‘iz orqali, takroriy kurs - 3 haftadan keyin, 2-3 oy davomida qo‘l panja tirnoqlari mikozi va 3-4 oy davomida oyoq panja tirnoqlari mikozi) | A<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a><br><br>A<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a> |
| Terbinafin   | Tab. 250 mg og‘iz orqali kuniga 1 mahal ovqatdan keyin har kuni 3-4 hafta davomida<br><br>(tirnoq plastinkalari zararlanganda: qo‘l panjalari onixomikozi 2-3 oy davomida ovqatdan keyin kuniga 1 marta og‘iz orqali 250 mg va tovon panjalari onixomikozi 3-4 oy davomida)  | A<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a><br><br><a href="https://www.vidal.ru/drugs/molecule/1016">https://www.vidal.ru/drugs/molecule/1016</a>  |
| Flukonazol   | Kapsulalar, 150 mg og‘iz orqali ovqatdan keyin haftada 1 marta kamida 3-4 hafta davomida<br><br>(tirnoq plastinkalari zararlanganda: haftasiga 1 marta ovqatdan keyin, sog‘lom tirnoqlar to‘liq o‘sib chiqqunga qadar og‘iz orqali 150 mg. Flukonazol qo‘l va oyoq panjalari onixomikozi matriksni shikastlamasdan samaralidir)                                      | B<br><a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovis_hcha.pdf</a><br><br><a href="https://www.vidal.ru/drugs/molecule/414">https://www.vidal.ru/drugs/molecule/414</a>  |
| Ketokonazol  | tirnoq plastinkalari zararlanganda: davolashning birinchi kunida sutkasiga 1   | C  |

|  |  |  |
|--|--|--|
|  | marta 400 mg, keyin - 200 mg kuniga 1 marta ovqatdan keyin sog'lom tirnoqlar to'liq o'sib chiqqunga qadar og'iz orqali | <a href="https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovishcha.pdf">https://www.ismos.ru/guidelines/doc/mikozy_stop_kistej_i_tulovishcha.pdf</a><br><br><a href="https://www.vidal.ru/drugs/molecule/578">https://www.vidal.ru/drugs/molecule/578</a> |
|--|--|--|

**Izoh:** Agar ma'lum bir guruhga kiruvchi zarur preparat shifoxonada qo'llash uchun tasdiqlangan ro'yxatda bo'lmasa yoki vaqtincha mavjud bo'lmasa, shifokor muqobil preparatni buyurishi mumkin (har xil ta'sir mexanizmiga ega, ammo bitta terapevtik maqsadga ega bo'lgan preparatlar). Dori vositasini tanlash klinik vaziyat, bemorning ahvoli va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

